


NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- may holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 25 238 tani tashkil etadi, shundan 20 866 mingtasi yoki 82,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,3 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 92,6 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
2025	25 238	21 024	20 866
2024	27 020	22 716	22 540
2023	29 139	24 843	24 674
2022	34 253	29 885	29 711
2021	32 656	28 394	28 246

Tumanlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Namangan shahrida – 31,6 foiz, Chust tumanida – 8,5 foiz, Pop – 7,5 foiz, To'raqo'rg'on va Chortoqda – 6,3 foizdan tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonidagi salmoqli ulushi Namangan shahrida – 84,7 foiz va 83,7 foiz, Chust – 84,9 va 84,2 foiz, Chortoq – 83,9 foiz va 83,5 foiz hamda Namangan – 84,0 foiz va 83,5 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	<i>shundan:</i>	
		Tadbirkorlik subyektlari	<i>shundan:</i>
			Kichik biznes subyektlari
Mingbuloq tumani	1 370	1 133	1 126
Kosonsoy tumani	1 488	1 218	1 214
Namangan tumani	1 487	1 249	1 241
Norin tumani	1 324	1 078	1 074
Pop tumani	1 898	1 554	1 547
To'raqo'rg'on tumani	1 586	1 324	1 313
Uychi tumani	1 478	1 222	1 210
Uchqo'rg'on tumani	1 446	1 179	1 173
Chortoq tumani	1 580	1 325	1 320
Chust tumani	2 145	1 822	1 806
Yangiqo'rg'on tumani	1 458	1 166	1 162
Namangan shahar	7 978	6 754	6 680
<i>Shundan Davlatobod t.</i>	<i>2 115</i>	<i>1 777</i>	<i>1 754</i>
<i>Yangi Namangan</i>	<i>1 970</i>	<i>1 745</i>	<i>1 727</i>

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- may holatiga 33,9 foizni (40,7 foiz va 40,9 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 16,1% (19,2% va 19,1%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 6,2% (7,3% va 7,3%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 556	1 529	1 523
Sanoat	4 050	4 045	3 992
Qurilish	1 314	1 298	1 289
Savdo	8 563	8 561	8 531
Tashish va saqlash	943	942	937
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 287	1 285	1 279
Axborot va aloqa	361	329	329
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	742	646	642
Boshqa turlar	6 422	2 389	2 344

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, 21 024 ta faol tijorat korxonalaridan 16 933 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	16 933	80,5
Xususiy korxonalar	3 008	14,3
Oilaviy korxonalar	868	4,1
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	200	1,0

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 235 ta korxonalardan 101 tasi qo'shma korxonalar va 134 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1- may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 17 taga oshgan. Bu asosan, Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 14 tadan 20 taga, (o'sish 4 taga), axborot va aloqa sohasida 4 tadan 7 taga (o'sish 3 taga) va savdo sohasida 55 tadan 58 taga (o'sish 3 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	235	101	134
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	9	11
Sanoat	93	44	49
Qurilish	12	4	8
Savdo	58	25	33
Tashish va saqlash	5	3	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	2	3
Axborot va aloqa	7	3	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	3	5
Boshqa turlar	27	8	19

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 60 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (22,1%), Turkiya (17,0%), Janubiy Koreya (6,0%) va Qozog'iston (5,1%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	235	101	134
Xitoy	60	19	41
Rossiya	52	24	28
Turkiya	40	11	29
Janubiy Koreya	14	6	8
Qozog'iston	12	9	3
Tojikiston	11	8	3
Hindiston	6	4	2
Qirg'iz.Respublikasi	6	3	3
Germaniya	5		5
Eron	5	2	3
BAA	5	2	3
Ozarbayjon	4	2	2
Isroil	3	1	2
Yaponiya	3	3	
Italiya	2	2	
Niderlandiya	2	2	
Pokiston	2		2
Boshqalar	3	3	

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
A. Siddiqov
69 211-72-00 (5060)

Maznil:
160133, Namangan sh.,
N.Namangoniy ko'chasi, 14
